

UY-JOY QURILISH SANOATIDA INNOVATSION-DASTURIY VOSITALAR TAHLILI

Boymatova Dildora Olim qizi

Termiz Davlat universiteti

Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti yo'nalishi

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada uy-joy qurilish sanoati korxonalarini faoliyatida innovatsion-dasturiy rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlari batafsil yoritilgan. Qurilish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar ham aniqlanib, ularni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: qurilish sanoati, qurilish tarmog'i, innovatsiyalar, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayonlar, innovatsion mahsulotlar.

KIRISH

Barcha rivojlangan mamlakatlar qatori, O'zbekiston Respublikasida ham qurilish industriyasi korxonalarida innovatsion tadbir (yechim)larning ilmiy – nazariy jihatlarini o'rganish bugungi kundagi eng dolzarb bo'lgan iqtisodiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Shiddatli raqobat sharoitida jahon bozorida qurilish mahsulotlarining talablarini ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonida yuqori samaradorlikka erishish, sifatli va raqobatbardosh qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish va buning natijasida iqtisodiy samaradorlikka innovatsiyalarsiz erishib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda ham qurilish sohasida tub o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda uy-joy qurilish industriyasi korxonalarini faoliyatida yangi mulkiy munosabatlardagi o'zgarishlarning amaliyotda qo'llanilishiga, ishlab chiqarilayotgan qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda samarali innovatsion tadbir (yechim)larni kengaytirishga alohida e'tibor berish va mazkur sohada ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish zarurligini uy-joy qurilish industriyasi korxonalarini o'zlarining asosiy maqsadlari deb qaramoqdalar.

Innovatsion tadbir (yechim)larning rivojlanish bo'yicha fikr yuritar ekanmiz, unibelgilovchi ko'rsatkichlar haqida bilish muhim ahamiyatga ega.

O‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqargan korxonalar soni va ishlab chiqarishga ketgan xarajatlari dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	2016 y	2017 y	2018 y	2019 y
Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqargan korxonalar soni	2374	2171	3144	3916
Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar hajmi, mlrd. so‘m	2571,4	4162263,6	4707211,8	6603474,9

Masalan, 2018 yilda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqargan korxonalarining soni 3144 ta ni tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilda bunday korxonalar soni 3916 taga yetdi, bu 2018 yilga nisbatan 772 taga ko‘payganligini ko‘rsatmoqda (1-jadval).

Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarayotgan korxonalar sonining ortib borishi bilan, korxonalarda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ham o‘z navbatida ortadi, ishlab chiqarish hajmi oshgan sayin korxonalaridagi xarajatlar ham oshishiga sabab bo‘ladi. 2018 yilda 4707211,8 mlrd. so‘m innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga xarajat qilingan bo‘lsa, 2019 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 1896263,1 so‘mga ko‘payib, ya‘ni 6603474,9 mlrd. so‘mni tashkil etmoqda.

Respublikada innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarayotgan korxonalar sonining ortib borishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining ko‘payishi bilan birgalikda bugungi kundagi tahlillar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirda uy-joy qurilish industriyasi korxonalarida oldida bir qancha muammolar dolzarb bo‘lib qolmoqda, jumladan:

- korxonalarda innovatsion-dasturiy tadbirlarning samarali tashkil etilmasligi;
- ushbu faoliyatni kengaytirish uchun korxonalar kadrlari malakasining yetishmasligi;
- iqtisodiy tavakkalchilik (risk)larning yuqoriligi va yo‘qotishlarni qoplanish muddatlarining uzoqligi;
- qurilish industriyasi korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqarolmaslik holatlarining mavjudligi.

Innovatsion jarayonlarni tizimli shakllantirish tadqiqotlari bilan shug‘ullangan tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini o‘rganib tahlil qilganimizda korxonadagi innovatsion faoliyatning samaradorligi, birinchi navbatda shu korxonalarining moliyaviy mablag‘lar bilan qay darajada ta‘minlanganlik darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizda iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirish uchun, qurilish industriyasi korxonalarida taraqqiyotning muhim sharti innovatsion

tadbirlar modelini yaratish hisoblanmoqda.

Fikrimizcha innovatsion tadbirlarni samarali tashkil etishning bir qancha afzalliklari mavjud:

- uy-joy qurilish industriyasi korxonalarida innovatsion tadbirlarni samarali tashkil etish, qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarishni optimallashtiradi va korxonada infratuzilma yaxshilanadi;

- yangi zamonaviy texnologiya yutuqlariga asoslanib yaratilgan qurilish mahsulotlarining davlat tomonidan, hamda xalqaro bozorlarda xarid qiluvchi mijozlari ko'payadi;

- aholining ish bilan ta'minlanmagan qatlamining ishsizlik muammosiga yechim topiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Bizning fikrimizcha uy-joy qurilish industriyasi korxonalarida innovatsion tadbirlarni samarali tashkil etishning ilmiy – nazariy asoslariga tayangan holda, yangi innovatsion ishlanmalarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish jarayonini yanada takomillashtirish masalalari bo'yicha quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim, jumladan:

– qurilish industriyasining har bir korxonasida innovatsion tadbirlarni samarali tashkil etish, hamda mavjud ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish, ulardan samarali foydalangan holda yangi sifatli qurilish mahsulotlarini yaratish va ishlab chiqarishga tatbiq etishga erishish;

– qurilish industriyasi korxonalarida tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish orqali yangi ish joylarini ko'paytirish;

– qurilish industriyasi korxonalarini bilan shu sohadagi ilmiy - tadqiqot olib boruvchi muassasalar bilan hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish;

– qurilish industriyasi korxonalar o'rtasida raqobat muhitini yaratish mexanizmini yaratish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-sonli "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 06/20/6119/1570-sonli farmoni, 28.11.2020 y.
2. Nurimbetov R.I., Toshmuxammedova K.S, Qurilish industriyasida innovatsion boshqarish usullarini joriy etishga ta'sir etuvchi omillar //Arxitektura. Qurilish. Dizayn. Ilmiy – amaliy jurnal, Izdatelstva TASI; Toshkent, 2016 №2
3. Talapov V.V. BIM texnologiyasi: qurilish ma'lumotlarini modellashtirishni amalga oshirishning mohiyati va asoslari - M.: DMK-press, 2015. - 410 b.
4. Sovetov, B.Ya., Yakovlev, S.A. Tizimlarni modellashtirish. Oliy maktablar uchun darslik. – M.: Oliy maktab, 2011. – 343 b.